



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti  
TARIX FAKULTETI



# TARIX JAM'YAT

## JOURNAL 2023

No 5



HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

**2023-yil 5-son      Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o‘qitish metodikasi**

**Bosh muharrir:**      **Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.**

**Bosh muharrir**      **Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.**  
**o‘rinbosari:**

**Mas’ul kotib:**      **Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

### TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Axmurodov D.Q**

# **DINIY MANBALARDA OTA-ONAGA EHTIROM MASALASI**

## **TALQINI**

**M.Hoshimxonov – JDPU, tarix fakulteti f.f.d., dots.**  
**Tursunov N. - JDPU 4-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diniy manbalar Qur’oni karim va hadislarda ota-onaga mehr-muhabbat ko‘rsatish, ulug‘lash, xizmatini ado etish bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qur'on, oyat, hadis, din, payg‘ambar, imon, ota-ona, ayol, tarbiya, mehr, muhabbat, xulq, odob, farzand, yaxshilik.

## **ТРАКТОВКА ВОПРОСА О ПОЧИТАНИИ РОДИТЕЛЕЙ В РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКАХ**

М. Хашимханов – ЖДПУ, исторический факультет д.ф.н., доц.  
Турсунов Н. - студентка 4 ступени ЖДПУ

**Абстрактный:** В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с проявлением любви, почитания и служения родителям в религиозных источниках, Священном Коране и хадисах.

**Ключевые слова:** Коран, аят, хадис, религия, пророк, вера, родители, женщина, воспитание, доброта, любовь, поведение, нравы, ребенок, благость.

## **INTERPRETATION OF THE ISSUE OF HONORING PARENTS IN RELIGIOUS SOURCES**

M. Hoshimkhanov - JDPU, Faculty of History Ph.D., Assoc.  
Tursunov N. - 4th stage student of JDPU

**Abstract:** This article examines issues related to showing love, honoring, and serving parents in religious sources, the Holy Qur'an and hadiths.

**Key words:** Qur'an, verse, hadith, religion, prophet, faith, parents, woman, upbringing, kindness, love, behavior, manners, child, goodness.

Ma'lumki, axloq va axloqiy munosabatlar masalasi doimo insoniyatni qiziqtirib kelgan. Ayniqa islom dini, tasavvufda axloq, xulq-odob qoidalari, ta'lim-tarbiya, o‘zaro muomala, axloqiy fazilatlarni kasb qilish, poklanish, komil insonni tarbiyalash kabi masalalar asosiy o‘rinni egallagan.

Qur'on va hadislarda katta e'tibor berilgan masalalardan biri-bolani yoshligidan boshlab tarbiyalash, unda ota-ona, oilaning o‘rni, bolaning ota-onaga, ota-onaning bolaga munosabatidir [6:65]. Imom Buxoriy, at-Termiziyy va boshqalarning hadislarida farzandlarni xushxulq qilib tarbiyalash haqida qimmatli fikrlar aytildi. Xushxulqlik barcha yaxshiliklarning poydevori hisoblanadi, u hamma narsadan a'lodir. Shuning uchun Abu Iso Termiziyy “Bir kishi bir so’ (g‘alla o‘lchovi) sadaqa bergandan ko‘ra o‘z farzandiga adab o‘rgatgani afzaldir”, deydi.

Shuning uchun ota-onan o‘z farzandini yoshlikdan boshlab xulq-odobini yaxshilash uchun qayg‘urishi kerak. “Hech bir ota o‘z farzandiga xulqu-odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, -deyiladi boshqa bir hadisda.

Qur’oni karimning bir joyida bola o‘z ota-onasiga faqat yaxshilikni ravo ko‘rishi lozimligini, u xoh musulmon bo‘ladimi, kofir bo‘ladimi, yaxshi yoki yomon bo‘ladimi, uni izzatini joyiga qo‘yishi to‘g‘risida gap ketadi. Faqat ota-onalar o‘z farzandlariga Allohdan boshqa soxta Xudolarni sherik qildirmoqchi bo‘lganidagina ularga itoat qilmasligi mumkin [5:285-286].

Islom dinida ota-onan muqaddas hisoblanib, uni hurmat qilish, e’zozlash farzandlar uchun ham farz, ham qarzdir. Qur’oni Karimda ota-onalarga faqat yaxshilik qilish ravo ko‘riladi. Masalan, Al-Isro nomli 17-suraning 23,24-oyatlarida bu haqda shunday deyiladi: “Parvardigoringiz, yolg‘iz uning O‘ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo‘l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab “uf” tortma va ularni (so‘zlarini) qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so‘z ayt!... Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut-xokisor bo‘l va: “Parvardigorm, meni (ular) go‘daklik chog‘imdan tarbiyalab o‘stirganlaridek, sen ham ularga rahm-shafqat qil”, deb (haqlariga duo qil)”[5:197].

Hadislar farzandlar ota-onalarini nafaqat tirikligida, balki vafotidan so‘ng ham esdan chiqarmaslikka, xotirlab turishga da’vat etadi. Buning yo‘li otasining yorubirodarlari, do‘satlari, tanish-bilishlari bilan aloqani uzmaslikdir. “Otangiz vafotidan keyin uning do‘satlari bilan aloqani davom ettiring. Ular bilan aloqani uzsangiz, Tangri sizning nuringizni o‘chiradi”, deyiladi. Islom dini bo‘yicha ota-onani hurmat qilmaslik, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, yordam bermaslik, boz ustiga so‘kishlik, gap qaytarish, haqorat qilish, roziligin olmaslik gunohi azim va do‘zaxiy amal hisoblanadi. Hatto ota-onalar zulm qilgan taqdirda ham, farzandlar ularni ranjitmasligi, xoru-zor qilmasligi, ularga muloyim gapireshi lozim. “Ota-onalarining keksalik vaqtida ham ikkisini yoki biri bo‘lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va Yana xor bo‘lsin”[5:287]. Shuning uchun ota-onaning qarg‘ishiga uchramaslik, ularni zinhor xafa qilmaslik farzandlarning muqaddas burchiga kiradi. Ayniqsa ota-onaga oq bo‘lish, ularni haqorat qilish gunohlar ichida kattasidir. Imom Buxoriy o‘z hadislarida quyidagilarni keltiradi: “Abdulloh ibn Amr rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: «Odam qiladirgan gunohi azimlardan biri-ota-onasini haqorat qilmoqdir»!-dedilar. Shunda: «Yo Rasululloh, odam o‘z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog‘i mumkin!-deyishadi. Janob Rasululloh: “Birovning ota-onasini so‘kkan odam o‘z ota-onasini haqorat qilgan bo‘lur”-deb javob qildilar” [1:78]. Otangni rozi qilish uchun agarda ikki olamda, u dunyo va bu dunyoda chor yor (to‘rt

xalifa Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) va Rasululloh ham, jamiki mashoyixlar, podshohlar, xojalar, nullar ham sening haqqining duo qilsalar-da, otang duosidan ustun tura olmaydi. Sen otang yoshlikda o‘git bergandek farzand bo‘l, seni tarbiyalayotganida bir so‘zli bo‘ladi, deb tarbiya bergenlar, yaxshilik urug‘ini sochadi, deb o‘rgatganlar, mutafakkir Boborahim Mashrab esa, “Tolibi sodiq bo‘lib yo‘lingda yurganing qani?-deb noto‘g‘ri qadam bosayotgan farzandlarga o‘git beradi.

Ma’naviy qadriyatlarimizda Arshi a’lo, a’zam, bandalarning otalariga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligidan a’lo emas. Farzandning otaga bo‘lgan muruvvati hamma narsadan yuksak va ulug‘. Shuning uchun otang ahvoldidan xabardor bo‘l, hadeb toatibodat qilib, Xudo yo‘liga o‘zingni bag‘ishlab, Xudojo‘y bo‘lganining bilan “Toating behudadir, hargiz topolmassan samar”- deb farzandlar insofga chaqirilgan. Shuningdek, Sen faqat ota maslahati bilan ish tut, Ota-onada va yaxshi kishilarning oldida hech vaqt oyog‘ingni uzatib o‘tirma, jismingni mudom pokiza saqla, o‘zingni ular oldida g‘ulom (qul)dek tut, shunda sen maqsadingga erishasan, deyiladi.

Qur’oni karimda aytilgan fikrlar hadislarda yanada kengroq va mufassalroq shaklda bayon qilingan. Ularda ota-onada kim bo‘lishidan qat’iy nazar farzand tomonidan hurmat qilinishi, keksalik chog‘ida parvarish qilishi lozimligi uqtiriladi. Ularda ko‘tarilgan fikrlar jumlasiga ota-onaga so‘zsiz itoat qilish, ularning rizoligini olish, xizmatini bajarish, ularga mehribonlik qilish, ota-onada oldida o‘zini kamtar, xokisor tutish va boshqalar kiradi. Imom Ismoil Buxoriy o‘zining “Al-adab al-mufrad” risolasida ota-onada haqida quyidagilarni aytadi: “Ota-onangga itoat qil, agar ular dunyodan voz kech desalar ham hurmatlari uchun buyruqlarini ijro qil!”[4:11]. Ayniqsa, farzandlardan birinchi o‘rinda onani hurmatini joyiga qo‘yish talab etiladi. Bu haqda at-Termiziyy hadislarida quyidagi fikrlar keltiriladi: “Bahz ibn Hakim aytishicha, unga otasi, bobosidan shunday rivoyat qilgan: “Yo Rasululloh!-dedim,- Kimga ezgulik qilay?” Rasululloh: “Onangga”, dedilar. “Yana kimga” deb edim: “Onangga” dedilar. “Yana kimga?” dedim. “Otangga”-dedilar,-undan keyin barcha yaqinlaringga”, dedilar[2:42].

Hadislarda, bulardan tashqari ayollar, umuman xotin-qizlar to‘g‘risida aytilgan fikrlar ko‘plab topiladi. Hadislardagi ayol-qizlar to‘g‘risidagi fikrlarni tahlil qilishdan oldin shuni aytish lozimki, sho‘rolar davridagi tadqiqotlarda islom dinining xotin-qizlarga munosabati soxtalashtirildi yoki noto‘g‘ri talqin qilindi, o‘sha davrdagi hukmron mafkuraga bo‘ysundirildi. Xususan, ularda islom dinining xotin-qizlarga past nazar bilan qarashi, ularni tahqirlashi, tengsizligi, ishlatmasdan faqat ichkarida tutqunlikda saqlab turishi to‘g‘risida ko‘p bo‘hton gaplar aytildi. Mustaqillik tufayli Qur’on va hadislarda xotin-qizlar to‘g‘risidagi fikrlarni

xolisona, haqqoniy, qanday yozilgan bo‘lsa shunday tahlil qilish, o‘rganish imkonini tug‘ildi.

Hadislar har bir mo‘min kishini ayollarga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lishga, ularni hurmat qilishga da’vat etadi. “Sizlarning yaxshilaringiz,-deyiladi ularda-o‘z ahlu ayoliga yaxshi munosabatda bo‘lganlaringizdir. Men sizlardan ko‘ra ham o‘z ahli ayolimga yaxshiman. Xotinlarni faqat yaxshi odamlargina izzat-ikrom qilur, ahlu ayollarni faqat yomon odamlargina xoru- zor qilur”[3:90]. Bu hadisdan ma’lum bo‘ladiki, islam dini xotin-qizlarni pastga urmaslikni, uni o‘zi bilan teng ko‘rishni, kiyim-kechak bilan ta’minalashni, so‘kmaslikni, unga qo‘l ko‘tarmaslikni ravo ko‘radi. Yana boshqa bir hadisda yuqorida fikrlar yanada rivojlantiriladi.. “Tangri ayollar bilan yaxshi muomalada bo‘lishlaringizni tavsiya etadi, chunki ular onalaring, qizlaring, xolalarining dir. Boshqa din ahllarining biri qo‘li ipga bormagan ayolga (ya’ni chevarchilikni bilmaydigan ayolga) uylansa ham bir-birlaridan bezor bo‘lib ajralishib ketmaydilar” [3:90].

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. IV jild.-T., 1992.
2. Abu Iso Termizi. Sahihi Termiziyy. –T.: O‘zbekiston, 1992.
3. Axloq-odobga oid hadis namunalari. –T.: O‘qituvchi, 1993.
4. Imom Ismoil Al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. –T.: O‘zbekiston, 1990.
5. Qur’oni karim. Al-Isro surasi. –T., Kamalak. 1992.
6. H.Aliqulov. Islom, tarix va ma’naviyat. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2000.